TALABALARDA KASBIY SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA TADQIQ ETILGANLIGI

Naxalboyev Mehriddin Ergash o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti
70310301 Psixalogiya mutaxasisligi magistranti.
naxalboyevmehriddin@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqola oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy hayotidagi ikki fundamental tushuncha – kasb mutanosibligi va kasbiy istiqbol to‘g‘risidagi tasavvurlarning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda Holland, Super va Pryajnikov kabi olimlar nazariyalariga tayangan holda, mutanosiblikning yuqori motivatsiya va ishdan qoniqishni ta’minlashi, istiqbolni rejalashtirish esa shaxsning raqobatbardoshligini oshirishi asoslangan. Tadqiqot xulosalarida mazkur jarayonlarni kuchaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar, xususan, diagnostika va mentorlik tizimini yo‘lga qo‘yish zaruriyati ko‘rsatilgan. Maqola ta’lim psixologlari, pedagoglar va kadrlar tayyorlash sohasi mutaxassislari uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: Kasb mutanosibligi, kasbiy istiqbol, karyera rejalashtirish, shaxsiy rivojlanish, o‘z-o‘zini anglash, motivatsiya, kompetentlik, mentorlik.

Talabalarda kasbiy shakllanishining psixologik muammo sifatida tadqiq etilganligi

O‘zbekistonda kasbiy psixologiya muammolarini o‘rganish jarayoni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi, ta’lim tizimidagi islohotlar hamda mehnat bozorining real ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib bormoqda. Mustaqillik yillarida kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarni ongli kasb tanlashga yo‘naltirish va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash masalalari kasbiy psixologiya tadqiqotlarining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

O‘zbekiston sharoitida kasbiy psixologiya muammolarini o‘rganishning muhim jihatlaridan biri — milliy mentalitet, madaniy qadriyatlar va an’analarni hisobga olish zarurati hisoblanadi. Yoshlarning kasb tanlashida oila, ijtimoiy muhit va jamoatchilik fikrining kuchli ta’siri mavjud bo‘lib, bu omillar kasbiy yo‘nalganlik, motivatsiya va professional o‘zini anglash jarayonlarida o‘ziga xos psixologik xususiyatlarni yuzaga keltiradi.

Respublikamizda ham bu borada pedagog va psixologlar o‘quvchilarning kasbga yo‘naltirish (M.G.Davletshin), kasbiy faoliyat diagnostikasi (Qodirov B.R., Qodirov K.B.), kasb psixologiya va uning etnopsixologik tomonlari (G‘oziyev E.G‘), o‘quvchilarning kasbiy xususiyatlarni shakllanishi (Jabbarov A); pedagoglardan o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish shart-sharoitlariga doir (Magzumov P.T), o‘quvchilarning mehnatga o‘rgatish (Choriyev E.T), o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish (Shodiyev N) va boshqalar.

Kasb-hunarning falsafiy va psixologik mohiyatiga bog‘liq manbalarni tahlil etish asosida K.B.Qodirov anchagina salmoqli izlanish olib borgan. U o‘z tadqiqotlarida kasbiy faoliyat diagnostikasi mmasalalarini tahlil etish Bilan cheklanmasdan, avlod va ajdodlarimizning kasb-hunarga doir asarlarining psixologik mohiyatini qisqacha sharhlashga erishgan[1].

D.N.Arziqulovning dissertatsion tadqiqotida[2] Agrar universitet talabalarining kasbiy shakllanish bosqichlari psixologik xususiyatlarini o‘ganishga asosiy e’tibor qaratildi. Arziqulov D.N. o‘z ilmiy tadqiqot ishining muammosi sifatida “Kasbiy kamolotning psixologik o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusini tanlagan bo‘lib, unda ilgari surilgan g‘oyalar bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy sifatlarni shakllantirishga hissa qo‘shadi. Muallif V.V.Stolin tomonidan asoslangan “O‘z-o‘ziga munosabat bildirish” metodi asosida bo‘lajak o‘qituvchilar faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘z-o‘zini anglash tuyg‘usining shakllanganlik darajasini o‘rganadi. V.V.Stolin tomonidan

[1] Қодиров К.Б. Касб танлашга тайёрликнинг психологик жиҳатлари ва касбий ташхис // НомДисс.Тошкент. 2001.

[2] Арзикулов Д.Н. Касбий камолотнинг психологик ўзига хос хусусиятлари.: Пс. фан. ном. ... дисс. автореф.–Т.: 2002.-22 б.

asoslangan “O‘z-o‘ziga munosabat bildirish” metodi pedagog shaxsida namoyon bo‘luvchi sifatlarning shakllanganlik darajasini quyidagi mezonlar asosida aniqlashga imkon beradi:

1. Integral “Men”. 2.O‘z-o‘zini hurmat qilish. 3. Autosimpatiya. 4. Boshqalarning munosabati (e’tibori va g‘amxo‘rligi)ni kutish. 5. O‘z-o‘ziga qiziqish. 6. O‘z-o‘ziga ishonch. 7. Boshqalarga munosabati. 8. O‘z-o‘zini qabullash. 9. O‘z-o‘ziga izchillik. 10. O‘z-o‘zini ayblash. 11. O‘z-o‘zini tanqid qilish. O‘zini tutish.

M.G.Davletshin tomonidan olib borilgan izlanishlarda o‘qituvchi shaxsi va uning qiyofasida o‘z aksini topishi zarur bo‘lgan kasbiy-psixologik va ma’naviy-axloqiy sifatlar ochib beriladi[3]. Shuningdek, muallif tomonidan yaratilgan manbalarning birida o‘quvchi shaxsida namoyon bo‘luvchi qobiliyatlar tasniflangan. Ular quyidagilardan iboratdir:

a) didaktik qobiliyatlar; b)akademik qobiliyatlar; v)perseptiv qobiliyatlar; g) nutq qobiliyati; d)tashkilotchilik qobiliyati; ye)avtoritar qobiliyat; yo) kommunikativ qobiliyat; j) pedagogik xayol; z) diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.

Muallifning ta’kidlashicha, bu qobiliyatlar o‘qituvchi faoliyatida g‘oyat muhim ahamiyatga egadir .

Pedagog olim R.Hasanov: "Tarbiya mazmunini madaniyat negizi tashkil etadi. Shuning uchun bolalar tarbiyasida asosiy o‘rinni axloqiy va muomala madaniyati, siyosiy, demokratik va huquqiy madaniyat, iqtisodiy madaniyat, estetik va badiiy madaniyat, ekologik va sanitariya-gigiyena madaniyati, jismoniy madaniyat, oila munosabatlari madaniyati egallaydi"[4], - deb ko‘rsatadi.

Professor K.B.Qodirov kasbiy konsultatsiyaning bir bosqichi, ya’ni kasbiy diagnostika borasida anchagina jiddiy tajribalar olib borgan. Uning izlanishlarida kasbiy faoliyat jarayoni umumiy psixologik, differensial psixologik va psixodiagnostik jihatdan

[3] Давлетшин М.Г Мактаб ўқувчиларининг техник қобилиятлари психологияси. - Тошкент: Фан, 1971. - 176 б. 35.

[4] Ҳасанов Р. Ўзбекистоннинг келажак умумтаълим мактаблари ҳақида ўйлар.-Т.: Ўқитувчи.1997.-34 б

yoritilgan. Hattoki bugungi yuqori sinf o‘zbek maktabi o‘quvchilarini kasb tanlashida yetakchi o‘rin tutuvchi omillarni ajratib ko‘rsatilganligi e’tiborga loyiq. Shuningdek, ushbu holat Ye.A.Klimovning kasb tiplariga (“inson-tabiat, “inson-texnika, « “inson-inson”, “inson-belgili tizim”, “inson-badiiy timsol”) qiyosiy identifikatsiyasi deb baholash mumkin.

Kasbga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatadi: o‘quvchilar tomonidan o‘z mehnatining jamoatchilik ahamiyatini tushunish, mehnat faoliyatida his-hayajon holatini yaratish[5]. Ishchi kasblarga bo‘lgan kasbiy qiziqishni rivojlantirish uchun zaruriy sharoitlar quyidagilar hisoblanadi: ta’lim oluvchilar tomonidan ushbu kasbning xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘lish; maktab o‘quvchilari tomonidan mehnat operatsiyalarini egallash; amaliy topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarish; ishdagi qiyinchiliklarni yengib o‘tish[6].

Adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, bilishga oid qiziqishlarning muvaffaqiyatli shakllanishiga faqat agar psixologo-pedagogik ta’sirlar his-hayajon, bilish va rag‘batlantiruvchi vazifalar sohasida tegishli xususiyatlarga ega bo‘lsagina erishish mumkin. Bundan tashqari, u yoki bu faoliyatga bo‘lgan kasbiy qiziqish shaxsga ta’sir o‘tkazuvchi turli tashkiliy va notashkiliy omillar ta’sirida shakllanadi. Bir qator tadqoqotlarda ko‘rsatilishicha[7], maktabda o‘quv-ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, o‘qituvchi ishining uslubi, materialning tarkibi, sinfdagi o‘zaro aloqalar tibbiy kasbni tanlashga ta’sir ko‘rstadi va kasbiy sifatlarning shakllanishiga ko‘mak beradi.

U yoki bu faoliyatga bo‘lgan kasbiy qiziqishning paydo bo‘lishi va yanada shakllanishi kishida ushbu faoliyatga tegishli qobiliyatlarning borligi bilan bog‘liq. Tadqiqotlarning

[5] Левитов Н.Д. Психологические закономерности социального развития личности в онтогенезе // Вопросы психологии, 1987. № 5.

[6] Мингалеева М.М. Формирование у школьников интереса к произволетвенным профессиям: Автореф. дис. канд. пед. наук. - М., 1967. - 15 с.

[7] Воробьева Т.А. Качественный анализ интереса к профессии учителя у абитуриентов педагогических вузов // Современные психолого-педагогические проб-лемы высшей школы: Сборник трудов. - Л.: ЛГУ, 1974. - Вып.2. - С.I72-I83.

ko‘rsatishicha,[8] o‘quvchilarda kasbiy-pedagogik qiziqish birinchi o‘qituvchi ta’siri ostida paydo bo‘ladi yoki sinfda o‘quvchilarda yaxshi taasurot qoldirgan va sevimli o‘qituvchiga aylangan birinchi pedagogning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Kasbiy qiziqishning shakllanishida muallif quyidagi shart-sharoitlarni muhim deb hisoblashicha: pedagogik mehnat unsurlari bilan bog‘liq faoliyatda maktab o‘quvchilarining ishtiroklari; pedagogik oliy o‘quv yurtlarning amaliyot o‘tayotgan talabalarini maktab o‘quvchilari bilan suhbat o‘tkazishlariga jalb qilish; yuqori sinf o‘quvchilarining pedagogik ish ustalari bilan uchrashuvlari.

Boshqa bir muallif[9] tomonidan esa kasbiy qiziqishni shakllantirish uchun quyidagi zarur shart-sharoitlar ajratiladi: ma’lum bilishga oid qiziqishlarni oddiylashtirish va ixtisoslashtirish, murakkablik ketma-ketligining sxemasi bo‘yicha darslarning tuzib chiqish va ularni muammolli masalalar tizimiga kiritish; o‘quvchilarni ularning bilishga oid faoliyatlarini hisobga olgan holda bir guruh kasblar bilan maqsadga muvofiq ravishda ketma-ketlik bilan tanishtirib chiqish; o‘quvchilar tomonidan kasblarni mustaqil ravishda chuqur o‘rganib chiqishlari; o‘z-o‘zini anglashni faollashtirish va tanlangan kasbda kuchini sinab ko‘rishga intilish.

Kasbga yo‘naltirishning muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarda bilimlarning u yoki bu jabxasida anglashli qiziqishlarni rivojlantirish bo‘lib, buning uchun turli yo‘llar, vositalar va uslublar ko‘zda tutilgan. Maktab o‘quvchilarida kasbga qiziqishning shakllanishini o‘rganishda ma’lum bo‘ldiki, so‘rovdan o‘tkazilgan o‘quvchilarning 90% “xohlayman” tamoyili bo‘yicha kasb tanlashadi, bu esa kasbga yo‘nalish noto‘g‘riligining yuqori darajasini sharoitlab beradi. Muallif maktab o‘quvchilarida kasbiy qiziqishni shakllantirishda ularda “kerak”, “qila olaman”, “xohlayman” tamoyillariga bo‘lgan ongli munosabatni yaratish kerakligini taklif qiladi. O‘quvchi tomonidan shu tarzda qabul qilingan qaror kasbiy qiziqishni shakllantirish jarayonini

[8] Морозова В.С. Социальный интерес и поведение личности: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. - М., 1980. - 19 с.

[9] Голомшток А.Е. Выбор профессии и воспитание личности школьника. - М.: Педагогика, 1979. - 169 с.

kuchaytiradi va unga ushbu kasbdagi imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashga yordam beradi. O‘z kasblarini tanlab bo‘lgan o‘quvchilarda kasbiy qiziqishlarni chuqur shakllantirishda, muallif quyidagilarni tavsiya qiladi: maktab o‘quvchilarini ma’lum kasbiy faoliyatga bo‘lgan kasbiy qadriyatlarga o‘rgatish; maktab o‘quvchilarining umumiy foydali ishlarning zarurligini tanlangan kasbning odamlar hayotidagi ahamiyatini anglashlariga erishish; mutaxassislarni darsdan tashqari tarbiya tadbirlarini o‘tkazishlariga jalb etish; ota-onalar bilan ishlash; yuqori sinf o‘quvchilarini kichik sinf o‘quvchilari bilan ishlariga jalb qilish; o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini shakllantirishni tashkil etish; kasbiy idealni yaratish va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, talabalik davri nafaqat bilim olish, balki o‘z kasbiy "Men"ini anglash, shakllantirish va uni mehnat bozoridagi mavjud talablar bilan– ushbu jarayonni ilmiy asoslangan holda boshqarish va har bir talabaning o‘z kasbiy salohiyatini maksimal darajada ro‘yobga chiqarishiga zamin yaratishdan iborat. Kasbiy mutanosiblik talabaning o‘z kasbiga barqaror qiziqishini va o‘qishdagi faolligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, kasbiy istiqbolga doir aniq, realistik tasavvurlar (kelajak karyerasini strategik rejalashtirish) talabaning o‘z-o‘zini rivojlantirishga mas’uliyatini oshiradi va uning harakatlarini maqsadga yo‘naltiradi. Xulosa shuki, Oliy ta’lim tizimining asosiy vazifasi – nafaqat mutaxassislik bo‘yicha bilim berish, balki talabaning kasbiy o‘zligini anglash, o‘z salohiyatini baholash va uni mehnat bozorining shiddatli talablariga moslashtirish jarayonini ilmiy psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Bu ikki omilning rivojlanishi — bitiruvchining ijtimoiy va kasbiy muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘oziev, E. G‘. (2007). Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi.

2. To‘rayev, H. R. (2018). Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari. Monografiya. Toshkent: Fan.

3. Ziyodova, S. I. (2020). Talabalarda kasbiy istiqbolni shakllantirishning psixologik mexanizmlari. Zamonaviy ta'lim / Sovremennoe obrazovanie, (1), 45-51. 4. Turg‘unov, J. (2015). Shaxsning kasbga yo‘nalganligini diagnostika qilish masalalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent.

5. Holland, J. L. (1997). Making vocational choices: A theory of vocational personalities and work environments (3rd ed.). Odessa, FL: Psychological Assessment Resources. (Kasbiy mutanosiblikning fundamental nazariyasi – Turlarni Modeli, RIASCE konsepti).

6. Super, D. E. (1980). A life-span, life-space approach to career development. Journal of Vocational Behavior, 16(3), 282-298. Karyerani rivojlantirishning yoshga bog‘liq nazariyasi va o‘z-o‘zini anglash konsepsiyasi.

7. Pryajnikov, N. S. (2008). Professionalnoe samoopredelenie: teoriya i praktika. Moskva: Akademiya. (Kasbiy o‘zini o‘zi anglash, kasbiy istiqbolni shakllantirish bo‘yicha Rossiya maktabining nazariy va amaliy yondashuvlari).